

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA TABIATDAGI MAVSUMIY O‘ZGARISHLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Muallif: Tolibjonova Farzona

*Andijon davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi, 3-bosqich, 303-guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatishning ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Fasllar orqali o‘quvchilarda atrof-muhitni kuzatish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish, ekologik ong va estetik did shakllantiriladi. Maqolada kuzatuv, rasm, rol o‘yinlari, ijodiy topshiriqlar kabi samarali metodlar tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: mavsum, fasl, boshlang‘ich ta’lim, metodika, kuzatuv, tabiat, o‘yin, tarbiya.

Kirish

Inson hayoti doimo tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Tabiatdagi fasllarning o‘zgarishi, haroratning pasayib-ko‘tarilishi, daraxt barglarining to‘kilishi yoki gullab yashnashi, hayvonot olamidagi faoliyatlar ritmi kabi hodisalar insonga bevosita ta’sir etib, uning yashash tarzini belgilaydi. Ayniqsa, bolalik davrida tabiat hodisalarini kuzatish, tushunish va idrok etish – bolaning tafakkuri, estetik dunyoqarashi, ekologik madaniyati va umumiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaranganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish – nafaqat ilmiy bilim berish, balki ularni tabiat bilan uyg‘un yashashga, atrof-muhitga mehr bilan qarashga, hayotiy ko‘nikmalarni egallashga o‘rgatish demakdir. Chunki maktabgacha va boshlang‘ich yosh davridagi bolalar voqelikni ko‘proq tasvirlar, real hayotiy tajriba, o‘z amaliy faoliyatlari orqali anglaydilar. Bu davrda ularning tafakkuri konkret-obrazli bo‘lib, mavsumiy o‘zgarishlarga nisbatan ham befarqlik emas, balki kuchli qiziqish mavjud bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda kuzatish, solishtirish, umumlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, tabiat hodisalarini o‘zlashtirish, nutqni rivojlantirish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Shu bilan birga, bu mavzuni o‘qitish o‘quvchilarning ekologik tarbiyasini ta’minlashda, ularda ona tabiatga mehr-oqibat, mas’uliyat hissini uyg‘otishda ham katta ahamiyatga egadir.

Mazkur ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, pedagogik usullar, interaktiv va innovatsion texnologiyalar, ko‘rgazmali va amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yo‘llari yoritiladi. Ishning dolzarbligi shundaki,

bugungi ta’lim jarayoni o‘quvchiga faqat tayyor bilim emas, balki bilimni o‘zi topish, tahlil qilish, real hayotga tadbiq etishga yo‘naltirilmoqda. Shu bois, mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish jarayoni ham an’anaviy ta’lim usullaridan tashqari, yangicha, kreativ yondashuvlarni talab qiladi.

Ushbu ish bosqichma-bosqich o‘rganilayotgan mavzular orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga, bilimlarni mustahkamlashga, ularda kuzatuvchanlik va tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar faqatgina fasllar haqida bilim olish bilan cheklanmasdan, tabiatning mo‘jizaviy o‘zgarishlariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 6–10 yosh oralig‘idagi bolalardir. Ular o‘zlarining bilish faoliyatida asosan sezgi, kuzatish, eshitish, ko‘rish, ushlash, harakat qilish orqali bilim oladilar. Shu sababli mavsumiy o‘zgarishlarni tushuntirishda mavhum tushunchalardan emas, balki konkret-obrazli vositalardan, ya’ni tabiatdan olingan misollar, suratlar, real kuzatuvlar, haqiqiy hayotiy holatlardan foydalanish o‘ta muhim. Masalan, kuz faslida dars vaqtida maktab atrofiga sayr uyushtirib, barglarning ranglari, havo harorati, qushlarning harakati haqida suhbatlar tashkil etish orqali bilim mustahkamlanadi.

2. Mavzuni integratsiyalashgan holda o‘qitish

Mavsumiy o‘zgarishlar mavzusi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi. Jumladan: Ona tili fanida fasllarga oid she‘rlar, topishmoqlar, matnlar bilan ishlanadi;

Tasviriy san’at darsida fasllar manzarasi aks ettirilgan rasm chizish orqali mavzu mustahkamlanadi;

Texnologiya darslarida “Kuz barglaridan kollaj yasash”, “Qor parchalari yasash” kabi amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;

Matematika fanida esa mavsumga oid masalalar orqali mavzuga integratsiya qilish mumkin. Masalan: “Qishda harorat -2° edi, bahorda $+6^{\circ}$ bo‘ldi. Harorat qancha darajaga o‘zgardi?”

Bu yondashuv o‘quvchilarni mavzuni turli yo‘nalishlarda chuqurroq anglashga va turli fanlar orasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi.

3. Mavsumiy o‘zgarishlar bo‘yicha fasl-fasl yondashuv

Har bir faslni alohida mavzu sifatida yoritish tavsiya etiladi. Quyida qisqacha tavsiyalar:

Bahor – Tabiat uyg‘onadi. Daraxtlar gullaydi. Quvnoq she‘rlar, kuzatuv darslari, “Gul ekaylik” loyihasi.

Yoz – Mevalar pishadi, ob-havo issiq bo‘ladi. “Yozgi ta’tilga tayyorgarlik”, “Issiqda sog‘liqni saqlash” mavzulari.

Kuz – Barglar sarg‘ayadi, qushlar janubga uchadi. “Kuz rasmini chizamiz”, “Qushlar uyi yasash”.

Qish – Qor yog‘adi, sovuq kunlar. “Qor haqida ertak yozamiz”, “Oq qog‘ozdan qor parchalari yasaymiz”.

Har bir faslga doir darslar orqali o‘quvchilarning kuzatuvchanligi va fasllarni farqlash, tahlil qilish, o‘xshatish, solishtirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

4. O‘yinli va ijodiy metodlardan foydalanish

Bolalar o‘yin orqali o‘rganishni yaxshi ko‘radilar. Shu bois mavzuni o‘yinli tarzda o‘rgatish dars samaradorligini oshiradi:

"Qaysi fasl?" o‘yini – O‘qituvchi belgilarni aytadi, o‘quvchi faslni topadi. (Masalan: “Barglar to‘kilyapti” Kuz)

Rolli sahnalar – O‘quvchilar fasllar obrazida chiqish qilishadi. (Masalan, biri "Qish", biri "Bahor" bo‘lib, o‘z faslini tanishtiradi)

"Faslarni tanlab rasm chiz" topshirig‘i – Bolalar o‘z xohishiga ko‘ra bir faslni tanlab, uni chizadilar va izohlaydilar.

Bu kabi o‘yinlar bolalarni darsga jalb qiladi, mustahkamlash bosqichida samarali bo‘ladi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Agar texnik imkoniyatlar bo‘lsa, AKT vositalarini qo‘llash tavsiya etiladi:

Slaydlar va videolar – Fasllarga oid rangli slaydlar, qisqa multfilmlar, video darslar.

Interaktiv doska – Fasllarga oid savol-javoblar, testlar, “To‘g‘risini tanla” o‘yinlari.

Online tajribalar – Virtual laboratoriyalar orqali havo harorati, yomg‘ir aylanishi kabi mavzularni tushuntirish.

AKT vositalari bolalar diqqatini tortadi, mavzuni tushunishni osonlashtiradi.

6. Mavzuni baholash va mustahkamlash usullari

Dars so‘ngida mavzuni mustahkamlash va baholash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

Test savollari;

“O‘ylab ko‘r” usuli (mavsumni aytib, unga mos belgilarni aytish);

Mini-esse: “Eng yoqimli fasl – bu...”

Fasllar bo‘yicha kollejlarda va jadvallarda tuzish.

Shuningdek, o‘quvchilarning individual qiziqishlari asosida loyihaviy ishlar berish ham foydalidir. Masalan: “Bizning bog‘da fasllar”, “Daraxtlar fasllarda” kabi mavzularda ijodiy daftarchalar yuritish.

7. Mavzuni o‘qitishda pedagogik tamoyillarni hisobga olish

Boshlang‘ich sinflarda mavsumiy o‘zgarishlarni o‘qitishda quyidagi muhim pedagogik tamoyillar asosida ish olib borish zarur:

Ko‘rgazmalilik tamoyili – bolalar mavzuni vizual (ko‘rish) vositalar orqali yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Har bir faslga oid suratlar, real tabiat namunalarini (barg, mevani quritilgan holatda) sinfga olib kelish orqali darslar boyitiladi.

Faollik va mustaqillik tamoyili – o‘quvchilarning mustaqil kuzatishlari, daftarchaga yozuvlar qilishlari, guruhli ishlarda faol qatnashishlari rag‘batlantiriladi.

Hayot bilan bog‘liqlik tamoyili – mavzularni o‘quvchilarning hayoti, tajribasi, kundalik hayotdagi hodisalar bilan bog‘lash muhim. Masalan, “Bahorda bog‘imizda nimalar o‘zgaradi?”, “Kuzda siz nimalarni sezdingiz?”

Samaradorlik va natijaviylik tamoyili – har bir darsdan keyin o‘quvchida aniq bilim, ko‘nikma yoki ijobiy munosabat shakllanishi zarur.

8. Darsning tuzilmasi va bosqichlari

Mavsumiy o‘zgarishlar mavzusida dars o‘qitishda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi:

1-bosqich: Kirish qismi

Faslga oid savol-javoblar, topishmoq yoki qisqa she‘r bilan boshlash.

E’tiborni jalb qiluvchi rasm, video yoki haqiqiy ob’ektdan foydalanish (masalan, kuzda barg, qishda qor).

2-bosqich: Yangi bilimlarni berish

O‘quvchilarga mavzuga doir asosiy tushunchalar, faslga xos tabiat hodisalari haqida axborot beriladi.

Rasm, slayd, tajriba yoki jonli kuzatuv asosida mavzu yoritiladi.

3-bosqich: Mustahkamlash

O‘yinlar, interaktiv topshiriqlar, mini-testlar orqali o‘rganilgan material qayta ishlanadi.

Savol-javoblar orqali bilim darajasi baholanadi.

4-bosqich: Yaratuvchanlik va ijodiy faoliyat

“Eng go‘zal fasl” mavzusida rasm chizish.

She‘r tuzish yoki kichik hikoya yozish.

Faslga doir maket yoki qo‘l mehnati bilan bog‘liq topshiriq.

5-bosqich: Baholash va xulosa

O‘quvchilarning faol ishtiroki, kuzatuvchanligi, mustaqil fikrlashi baholanadi.

Fasllar haqida qisqacha xulosa chiqariladi.

9. Mahalliy materiallardan foydalanish

O‘quvchilarning yashash joyi va atrof-muhitiga xos mavsumiy o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar kiritish darsga yanada yaqinlik beradi. Masalan:

Andijonda kuzda tut barglari qanday sarg‘ayadi?

Bahorda Paxtakor tumani bog‘larida qanday gullar ochadi?

Qishda Qorasuvda necha kun qor yog‘adi?

Bu kabi lokal misollar orqali bolalar o‘zlari yashaydigan muhitga nisbatan e’tiborli va vatanparvar bo‘lib ulg‘ayadi.

10. O‘qituvchining roli

O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va ilhomlantiruvchi bo‘lishi lozim. U:

O‘quvchilarning qiziqishini doimiy qo‘llab-quvvatlashi;

Ularning savollariga sabr bilan javob berishi;

Fasllarni hayotiy va hissiy jihatdan chuqurroq anglatishi;

Har bir bola uchun shaxsiy yondashuvni tanlashi kerak.

O‘qituvchining ijobiy emotsional holati va tabiatga nisbatan samimiy munosabati bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

11. Natijalarni tahlil qilish va baholash

O‘quvchilar mavzuni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganini quyidagi mezonlar orqali baholash mumkin:

Fasllarning belgilari va o‘zgarishlarini ayta oladimi?

Mavzuga oid rasm, matn, she’r, hikoya tuza oladimi?

Tabiatdagi o‘zgarishlarni mustaqil ravishda kuzata oladimi?

Tabiatga ijobiy munosabat bildiradimi?

Bu ko‘rsatkichlar asosida o‘quvchining mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari (B-K-M) baholanadi.

Metodik tavsiyalar

1. Darslarni real kuzatuv asosida tashkil etish

Har bir faslda sinfdan tashqari kuzatuv darslari (ekskursiya, maktab hovlisida sayr) o‘tkazish.

Bolalar bilan birgalikda daraxt barglarining rangi, qushlarning harakati, ob-havo o‘zgarishlarini yozib borish uchun “Tabiat kundaligi” yuritish.

Tashqi kuzatuvlar natijasida mavsumga oid kichik hikoya, rasm, kollej tayyorlashga topshiriqlar berish.

2. Faslga mos o‘yinli va dramatik metodlardan foydalanish

Har fasl uchun “Fasllar bayrami”, “Fasllar bahsi” kabi sahna ko‘rinishlari tayyorlab, o‘quvchilarning ijodiy chiqishlarini tashkil etish.

O‘yinli topshiriqlar: “Qaysi fasl?”, “Faslga top!”, “Nimani kiyamiz?” o‘yinlarini interaktiv darslarda qo‘llash

3. Multimediya va AKT vositalaridan foydalanish

Darsda slayd-shou, qisqa videoroliklar (masalan, “Bahorning kelishi”, “Qishda hayvonlar”) ko‘rsatish.

Interaktiv testlar, virtual tajribalar yordamida mavzuni mustahkamlash.

QR-kodli ish varaqalari orqali o‘quvchining uyda mustaqil ishlashi uchun imkon yaratish.

4. Mavzuni fanlararo integratsiya asosida o‘rgatish

Ona tili: fasllarga oid she‘rlar, matnlar, topishmoqlarni o‘qitish.

Matematika: fasllarga oid masalalar (masalan: “Bahorda 4 ta daraxt gulladi, kuzda yana 3 tasi – jami nechta?”).

Tasviriy san‘at: “Fasllar manzarasi” rasm chizish.

Texnologiya: barglardan kollaj, qor parchalari yasash.

5. Didaktik materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish

Har bir faslga doir ko‘rgazmali burchak yaratish: faslga oid rasm, she‘r, real barglar, mevalar, rasmlar.

Sinfda fasllar bo‘yicha ma‘lumot jadvallari yaratish (masalan, “Qishda nima o‘zgaradi?” jadvali).

Mavsumiy plakatlar, kartochkalar, fasllar charxi kabi materiallar yasab darslarni bezash.

6. Ijodiy topshiriqlar va loyihaviy ishlarni joriy etish

Har bir o‘quvchiga faslga oid ijodiy topshiriq: hikoya yozish, rasm chizish, foto yoki rasmlar albomini tayyorlash.

Mini-loyihalar: “Men kuzni qanday his qilaman”, “Qishda hayvonlar qanday yashaydi?”, “Bahor — hayot boshlanishi”.

7. Shaxsiy yondashuvni qo‘llash

Har bir o‘quvchining fasllarga nisbatan qiziqishi va individual qabul qilish tarzini inobatga olish.

Rivojlanish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilarga sodda, vizual yordamli topshiriqlar, iqtidorlilarga esa izlanishga yo‘naltirilgan vazifalar berish.

8. Mavzuga doir xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish

Topishmoqlar: “Oq otim bor — to‘rttovlon yuradi” (qor).

Mahalliy maqollar: “Bahor keldi — bog‘ kuldi”.

Fasllarga oid ertaklar, rivoyatlar orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish

9. Fasllarga oid mini-tadqiqot ishlarini tashkil etish

O‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, har bir guruhga faslni o‘rganish bo‘yicha savollar va ko‘rsatmalar berish:

“Qishda qanday hayvonlar uyquga ketadi?”

“Bahorda qushlar nima qiladi?”

“Kuzda daraxtlar nega barg to‘kadi?”

10. Mavzuni tarbiyaviy jihatdan boyitish

Fasllar orqali o‘quvchilarda tashqi ko‘rinishga qarab xulosa qilish, sabrlilik, tabiatga mehr, tozalik, ekologik madaniyat kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish – bu shunchaki fasllarni sanab o‘tish emas, balki har bir o‘quvchining dunyoqarashi, kuzatuvchanligi, fikrlash qobiliyati va tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish jarayonidir. Bu mavzu orqali bolalarda:

kuzatuvchanlik,

analitik fikrlash,

so‘z boyligi va ifoda qilish malakasi,

tabiat hodisalarini anglash,

atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish darslari qanchalik jonli, ko‘rgazmali, faol va bolalar ehtiyojlariga mos tashkil etilsa, ularning tabiiy fanlarga qiziqishi ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Ayniqsa, fasllarni hayotiy tajriba asosida, real kuzatuvlar orqali o‘rgatish bolalar qalbiga chuqur o‘rnashadi va uzoq muddat esda qoladi.

O‘qituvchi bu jarayonda:

mavzuni interfaol metodlar bilan boyitishi,

darsni fanlararo bog‘liqlikda olib borishi,

har bir o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishi,

estetik tarbiya, ekologik ong, ijodiy tafakkur kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Shuningdek, darslarda zamonaviy texnologiyalar, o‘yinli metodlar, ijodiy topshiriqlar, miniproektlar va dramatizatsiyalardan foydalanish orqali mavzu yanada mazmunli va samarali bo‘ladi. O‘quvchilar mavsumlar o‘zgarishini faqat nazariy emas, balki amaliy tarzda his qilishadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rgatish orqali biz o‘quvchilarda:

ilmiy dunyoqarash,

atrof-muhitga nisbatan hurmat va g‘amxo‘rlik,

go‘zallikni ko‘ra olish va qadrlash hissi,

Vatanga, tabiatga mehr kabi eng zaruriy insoniy fazilatlarni shakllantiramiz.

Shunday ekan, bu mavzuni boshlang‘ich ta’limda sifatli, chuqur va o‘quvchilar hayotiga yaqin tarzda o‘rgatish – ularning keyingi bosqichlardagi o‘qish va tarbiyasiga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Toshxo‘jayev, Sh. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Qodirova, M. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. – T.: Ilm Ziyosiy, 2020.
4. Xolbekova, D., Qurbonov, A. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish asoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologik ta’lim va tarbiyani takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 2019 yil 30 oktyabr, PQ-4477-son.
6. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik qo‘llanmasi / Tahrir hay’ati ostida. – T.: Ixtisoslashgan nashriyot, 2022.
7. Shonazarova, Z. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – T.: Cho‘lpon, 2020.
8. G‘ulomov, S., Karimova, N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Ilm-Ziyosiy, 2021.
9. Nasirova, Z. Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion metodlar. – Samarqand, 2022.
10. Boshlang‘ich sinf uchun “Atrofimizdagi olam” darsligi (1–4-sinflar). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–4-sinflariga mo‘ljallangan tabiiy fanlar o‘quv dasturi. – T.: 2022.
12. Turdaliyeva, G. Ilk ekologik bilimlar va tarbiya boshlang‘ich maktabda. – T.: Ilm, 2020.
13. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
14. Matkarimov, J. S. (2024). TA’LIM MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO‘LLASH.
15. Matkarimov, J. S. (2024). TA’LIM MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO‘LLASH.
16. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.